

IJTIMOIIY SIYOSATNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY
RIVOJLANISHDAGI O'RNI: TARIXIY RIVOJLANISH, ASOSIY YO'NALISHLAR VA
ZAMONAVIY TAMOYILLAR

Tolibov Mirshod Mirjon o'g'li

Osiyo Xalqaro Universiteti magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14741522>

Annotatsiya. Ijtimoiy siyosat inson hayotining sifatini yaxshilash, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish maqsadida davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va dasturlar tizimini anglatadi. Ushbu maqolada ijtimoiy siyosatning nazariy asoslari, iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, uning tarixiy rivojlanishi, asosiy yo'nalishlari va zamonaviy tamoyillari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy siyosat, iqtisodiy rivojlanish, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy himoya, zamonaviy tamoyillar, bandlik, innovatsiyalar, sanoat inqilobi.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL POLICY AND ITS ROLE IN
ECONOMIC DEVELOPMENT: HISTORICAL DEVELOPMENT, MAIN DIRECTIONS
AND MODERN PRINCIPLES

Abstract. Social policy is a system of measures and programs implemented by the state in order to improve the quality of human life, ensure social equality and stimulate economic development. This article analyzes the theoretical foundations of social policy, its role in economic development, its historical development, main directions and modern principles.

Keywords: social policy, economic development, health, education, social protection, modern principles, employment, innovations, industrial revolution.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ И ЕЕ РОЛЬ В
ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ: ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ, ОСНОВНЫЕ
НАПРАВЛЕНИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ ПРИНЦИПЫ

Аннотация. Социальная политика — система мер и программ, реализуемых государством в целях повышения качества жизни людей, обеспечения социального равенства и стимулирования экономического развития. В статье анализируются теоретические основы социальной политики, ее роль в экономическом развитии, ее историческое развитие, основные направления и современные принципы.

Ключевые слова: социальная политика, экономическое развитие, здравоохранение, образование, социальная защита, современные принципы, занятость, инновации, промышленная революция.

Bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy soha – sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, uy-joy-kommunal xo'jaligi, sport, turizm sohalarini rivojlantirish, aholini, ayniqsa uning nochor toifalarini ishonarli ijtimoiy himoya qilish, mehnat muhofazasi, pensiya ta'minoti, sug'urta tizimlarini takomillashtirish muammolarini tadqiq etish zarurati iqtisodiyotning rivojlanishida alohida o'z o'rniga ega bo'lgan. Ijtimoiy siyosatning nazariy asoslari bir qator ijtimoiy fanlar, jumladan, ijtimoiy iqtisodiyot, sotsiologiya va psixologiyaga tayangan holda shakllanadi. Bu nazariyalar davlatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizimlar bilan bog'liq turli masalalarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishga yordam beradi. Masalan, klassik ijtimoiy kontrakt nazariyasi, ijtimoiy adolat g'oyalari va e'tibor bergan resurslarni taqsimlash kuchli ijtimoiy siyosat asoslarini yaratadi. Ijtimoiy siyosat iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi.

Buning sabablaridan biri, ijtimoiy siyosat orqali yaratiladigan ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy jihatdan farovonlikni oshirishga yordam beradi. O'z navbatida, huquqiy va ijtimoiy tenglik, mehnat bozori imkoniyatlarini oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi islohotlar iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Ijtimoiy siyosatning tarixiy rivojlanishi turli davrlarda va mamlakatlarda o'zgaruvchidir. XX asrning boshlarida yevropadagi mamlakatlarda ijtimoiy siyosat ko'plab ishchi sinflar manfaatlarini himoya qilish maqsadida olib borilgan. Keyinchalik, Xitoy, Hindiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy siyosat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ijtimoiy muvozanatni saqlashga qaratildi.

Hozirgi davr talablaridan kelib chiqib ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Ta'lim sifatini oshirish va ta'lim bilan qamrab olish darajasini kengaytirish orqali inson kapitalini oshirish;

- Sog'lom turmush tarzini yuritish, yashash sharoitlarini yaxshilash va aholi uchun tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- Kam daromadli qatlamni himoya qilish va ularning turmush sharoitlarini yaxshilash;
- Mehnat bozorini tartibga solish, tenglik va adolatli mehnat sharoitlarini ta'minlash.

Hozirgi zamonaviy ijtimoiy siyosat yangi usul va vositalar orqali jumladan, barqaror rivojlanish, barqaror iqtisodiy o'sish g'oyalari, ijtimoiy innovatsiyalar va raqamli iqtisodiyot

asosida yuritiladi. Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar ijtimoiy siyosatni rivojlantirish jarayonida iqtisodiy, ekologik, va ijtimoiy barqarorlik tamoyillarini amal qilishga intilmoqda.

Tarixga nazar tashlasak ijtimoiy siyosatning nazariy asosi dastlab 18 asrlarda klassik iqtisodchi olimlar Adam Smit hamda David Rikardolarning asarlarida ko'rish mumkin. Umuman olganda ijtimoiy siyosatning rivojlanish tarixini quyidagi nazariy yondashuvlar orqali ko'rsatish mumkin:

- Adam Smit¹ va David Rikardo² kabi klassik iqtisodchilarning ijtimoiy siyosatga oid qarashlari asosan bozor erkinligi va iqtisodiy samaradorlik masalalariga qaratilgan. Ularning nazariyalarida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi minimal darajada bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi.

- Karl Mark esa, aksincha, sinfiy kurash va kapitalistik tizimning tengsizlikni kuchaytirishiga e'tibor qaratgan³. Uning yondashuvi ijtimoiy adolatni tiklash uchun davlatning faol rolini talab qiladi.

- Jon Meynard Keynes⁴ esa iqtisodiy depressiya sharoitida davlatning faol aralashuvi zarurligini asoslagan. Uning nazariyasiga ko'ra, davlat iqtisodiyotni rag'batlantirish orqali bandlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashi kerak.

Ijtimoiy siyosatning tarixiy rivojlanishi sanoat inqilobi davriga, ayniqsa, 19-asr oxiri va 20-asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda xalqaro ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmalardagi o'zgarishlar, shuningdek, shaharlarning tez rivojlanishi va ishchi sinfining paydo bo'lishi natijasida davlatning ijtimoiy funksiyalarini kengaytirish zaruriyati tug'ildi. Ayniqsa ishchilar kam maosh, murakkab mehnat sharoitlari va ijtimoiy himoyasiz qolganligi, ularda ijtimoiy adolat va xavfsizlik hissini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Germaniyada, mamlakat kansleri Otto fon Bismark tomonidan 1880-yilda joriy etilgan ijtimoiy sug'urta tizimi bu yo'nalishda dastlabki muvaffaqiyatli tajribalardan biri bo'ldi⁵. Bismarkning ijtimoiy siyosati ishchilarni naqd pul va tibbiy yordam bilan ta'minlash, shuningdek, ishga qabul qilinadigan qonunchilikni mustahkamlashga qaratilgan edi. 20-asrning ikkinchi yarmida esa rivojlangan davlatlarda ijtimoiy muammolarni hal etishda davlatning roli yanada muhim ahamiyat kasb etdi.

¹ Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell.

² Ricardo, D. (1817). *On the Principles of Political Economy and Taxation*. London: John Murray.

³ Marx, K. (1867). *Das Kapital: Kritik der politischen Ökonomie*. Hamburg: Otto Meissner.

⁴ Keynes, J. M. (1936). *The General Theory of Employment, Interest, and Money*. London: Macmillan.

⁵ O'zbekistonda ijtimoiy sug'urta modellarini qo'llashda xorijiy mamlakatlar tajribasi, Beknazarov Zafarjon Ergashevich Toshkent moliya instituti "Sug'urta va pensiya ishi" kafedrasi dotsenti. *Iqtisodiyot va ta'lim* / 2022 yil 1-son, 135-140.

Rivojlangan davlatlarda aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash va ijtimoiy tenglikni saqlash maqsadida bir qator dasturlar va vositalar ishlab chiqildi.

Zamonaviy davlatchilikda ijtimoiy soha rivojlanishida o'z hissasini qo'shgan iqtisodchi olim Gosta Esping-Andersen tomonidan ishlab chiqilgan uchta farovonlik modeli ijtimoiy siyosatning turli shakllarini tavsiflaydi⁶:

1. **Liberal Model:** Ushbu model asosan bozor prinsiplariga tayangan holda ish ko'radi. Davlat minimal aralashuvni amalga oshiradi va ijtimoiy yordamlar asosan ehtiyojmandlarga mo'ljallangan. Bunday model ko'proq anglo-sakson mamlakatlarida, masalan, AQSh, Kanadada qo'llaniladi.

2. **Konservativ Model:** Ushbu model ko'proq ananaviy oila va jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy tuzilmalarga tayanadi. Davlat ijtimoiy sug'urta va pensiya tizimlarini mustahkamlash orqali oilalar va an'anaviy ijtimoiy tuzilmalarni qo'llab-quvvatlaydi. Bu model ko'proq Germaniya, Italiya va boshqa ko'plab Yevropa mamlakatlarida namoyon bo'ladi.

3. **Sotsial-Demokratik Model:** Ushbu model ijtimoiy tenglik va adolatga e'tibor beradi.

Davlat iqtisodiy faoliyatga faol aralashadi va keng ijtimoiy xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy sug'urta tizimini ta'minlaydi. Skandinaviya mamlakatlari, jumladan, Shvetsiya, Norvegiya va Daniyada bu model muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

Ijtimoiy siyosatning tarixiy rivojlanishi insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga qanday javob berishi va davlatning roli qanday o'zgarishini ko'rsatadi. Sanoat inqilobidan tortib rivojlangan mamlakatlar sonining ortishi, ijtimoiy siyosat orqali aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan dasturlar va siyosatlarni ishlab chiqishga olib keldi. Esping-Andersenning modellarini o'rganish esa zamonaviy ijtimoiy siyosatni yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi va turli mamlakatlardagi ijtimoiy siyosatni samarali amalga oshirishda yordam beradi.

Ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari va tamoyillari har bir mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga bog'liq holda shakllanadi. Shu bilan birga, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy tenglikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash barcha mamlakatlar uchun umumiy maqsad sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekistonning ijtimoiy siyosat sohasidagi islohotlari mamlakat taraqqiyot strategiyasining asosiy qismi bo'lib, u iqtisodiy rivojlanishni ijtimoiy adolat va barqarorlik bilan uyg'unlashtirishni maqsad qilgan. "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

⁶ Gosta Esping-Andersen (1990), "Jamiyat farvonlik modeli"

2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni ijtimoiy sohalarni takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi⁷:

1. Aholini ijtimoiy himoya qilish:
 - Ijtimoiy yordam dasturlarini kuchaytirish.
 - kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yangi usullarni joriy etish, jumladan, oilalarni iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash.
 - Mahallabay ishlash tizimini rivojlantirish orqali kam ta‘minlangan aholiga ko‘mak berish.
2. Ta‘lim tizimini rivojlantirish:
 - Maktabgacha ta‘lim qamrovini oshirish.
 - Oliy ta‘limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va ta‘lim sifatini oshirish.
 - Yoshlar uchun yangi bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish dasturlarini joriy qilish.
3. Sog‘liqni saqlash sohasini takomillashtirish:
 - Davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida tibbiy xizmatlarni kengaytirish.
 - Tibbiy sug‘urta tizimini rivojlantirish.
 - Profilaktik tibbiyot va sanitariya xizmatlarini kuchaytirish.
4. Bandlikni oshirish:
 - Yangi ish o‘rinlari yaratish va mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish.
 - Kasb-hunar ta‘limi tizimini modernizatsiya qilish orqali mehnat resurslarini raqobatbardosh qilish.
 - Aholining ehtiyojlariga moslashtirilgan bandlik dasturlarini amalga oshirish.
5. Kambag‘allikni qisqartirish:
 - Tadqiqotlar va statistik ma‘lumotlar asosida kambag‘allikni darajasini aniqlash va unga qarshi strategik choralarni ishlab chiqish.
 - Aholining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali qashshoqlikni tizimli ravishda qisqartirish.

O‘zbekistonning ijtimoiy siyosati Skandinaviya yoki Yevropa davlatlarining ba‘zi tamoyillariga o‘xshashlik kasb etgan holda, mamlakatga xos xususiyatlarni saqlab qolgan. Bu siyosatning uzoq muddatli maqsadi fuqarolarning farovon hayotini ta‘minlash va barqaror ijtimoiy tizim yaratishga qaratilgan. Ijtimoiy siyosatning muvaffaqiyati uning iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatni uyg‘unlashtirish orqali namoyon bo‘ladi.

⁷ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ijtimoiy siyosatni takomillashtirish kambag'allikni qisqartirish iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, samarali ijtimoiy siyosat orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va aholi turmush darajasini oshirish imkoniyatlari kengdir. Ushbu sohalar davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi va doimiy nazoratda bo'lishi yoki aksincha, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar orqali rivojlantirilishi hozirgi davr talabiga aylanmoqda. Mazkur chora-tadbirlar orqali inson kapitali qiymatini oshirish imkoniyati vujudga keladi.

REFERENCES

1. Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell.
2. Ricardo, D. (1817). *On the Principles of Political Economy and Taxation*. London: John Murray.
3. Marx, K. (1867). *Das Kapital: Kritik der politischen Ökonomie*. Hamburg: Otto Meissner.
4. Keynes, J. M. (1936). *The General Theory of Employment, Interest, and Money*. London: Macmillan.
5. O'zbekistonda ijtimoiy sug'urta modellarini qo'llashda xorijiy mamlakatlar tajribasi, Beknazarov Zafarjon Ergashevich Toshkent moliya instituti "Sug'urta va pensiya ishi" kafedrasida dotsenti. *Iqtisodiyot va ta'lim / 2022 yil 1-son*, 135-140.
6. Gosta Esping-Andersen (1990), "*Jamiyat farvonlik modeli*"
7. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
8. Abdullayev A.J. (2024) Oliy ta'lim muassasasida tahsil oluvchi xorijiy talabalarning oliy tibbiy ta'limdan qoniqish indeksiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. "*IQTISODIYOT VA TURIZM*" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali 6 (20), 125-133.
9. Солиева, М. А., & Абдуллаев, Ж. Ж. (2016). The role of managerial culture in Organizations: Enterprise manager culture and its social and economic impacts. *Молодой ученый*, (7), 986-989.
10. Ruziyeva, D., & Abdullaev, J. (2017). IMPACT OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE ECONOMY. *Відповідальний за випуск*, 40.
11. Ruziyeva, D., & Abdullaev, J. (2017). BIG OBJECTIVES OF SMALL BUSINESS. *Відповідальний за випуск*, 178.

12. Рахматов, Ш. А., & Абдуллаев, Ж. Ж. (2017). ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ: СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.
13. Abdullaev, J. (2021). SOME ASPECTS OF LEGISLATIVE ACTIVITIES OF INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FIELD OF COPYRIGHT AND RELATED RIGHTS. *Интернаука*, (18-4), 51-54.
14. АБДУЛЛАЕВА, Д. К. (2016). АНАЛИЗ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ УЗБЕКИСТАНА: ЭКСПОРТ-ИМПОРТ. In *Прикладные статистические исследования и бизнес-аналитика* (pp. 230-232).
15. Mamurov, B. J., & Abdullayev, J. J. (2022). Aholi jon boshiga umumiy daromadlarga ta'sir qiluvchi omillarning korrelyatsion tahlili. *Science and Education*, 3(1), 1142-1147.
16. Abdullayev, J. (2023). THEORETICAL FOUNDATIONS OF VALUE CHAIN FORMATION. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(21).
17. Jaxongirovich, A. J. (2024). Value Chain Evolution: Existing Theories, Vision, and Future Trend. *European Journal of Economics, Finance and Business Development*, 2(3), 1-7.
18. Abdullaev, B. A. Z. Z. (2022). THE ROLE OF EXPORT ACTIVITY IN THE COUNTRY'S ECONOMY. *Confrencea*, 5(5), 87-91.
19. Мамуров, Б. Ж., & Абдуллаев, Ж. Ж. (2021). Регрессионный анализ как средство изучения зависимости между переменными. *European science*, (2 (58)), 7-10.
20. Рузиева, Д. И., & Абдуллаев, Ж. Ж. (2017). THE MECHANISM OF BUDGETING SMALL ENTREPRENEURSHIP.
21. Азимов, Б. Ф., Бобоев, А. Ч., & Абдуллаев, Ж. Ж. (2022). Определение экспортных драйверов региона путем анализа внешнеторгового оборота бухарской области. *ученый xxi века*, (7 (88)), 20-24.
22. Abdullaev J. (2024) The academic dynamics and integration influences shaping the experiences of international students in higher education. "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" konferensiyasi (196-200 b.)
23. Otkirovich, N. S. (2024). Yashil Iqtisodiyotda Raqamli Transformatsiya. *Miasto Przyszłości*, 54, 1356-1364.

24. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). AHOLINING O'ZINI OZI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AUTSORSING YANGI SHAKLINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 59-64.
25. Akbarovna, N. N. (2024). MILLIY IQTISODIYOTNI TAHLIL QILISHDA QO'LLANILADIGAN ASOSIY KO'RSATKICHLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 278-283.
26. Hakimovich, T. M. (2025). EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 112-121.
27. Hakimovich, T. M. (2025). O 'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG 'BATLANTIRISH UCHUN FOYDALANILADIGAN MOLIVAVIY VOSITALAR TAHLILI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 141-150.
28. Hakimovich, T. M. (2025). KORXONALARDA RAQOBATBARDOSH EKSPORTNI YO'LGA QO'YISH VA MARKETING STRATEGIYALARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 193-205.
29. Hakimovich, T. M. (2025). EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 112-121.
30. Hakimovich, T. M. (2025). O 'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG 'BATLANTIRISH UCHUN FOYDALANILADIGAN MOLIVAVIY VOSITALAR TAHLILI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 141-150.
31. Hakimovich, T. M. (2025). KORXONALARDA RAQOBATBARDOSH EKSPORTNI YO'LGA QO'YISH VA MARKETING STRATEGIYALARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 193-205.
32. Bahodirovich, X. B., & To'rayevna, S. N. (2025). LOMBARD TASHKILOTLARI VA ULARNING XIZMATLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 290-298.
33. Bahodirovich, X. B., & To'rayevna, S. N. (2025). BANK TIZIMI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 372-379.

34. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI BOSHQARISHNING AHAMIYATI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 2(1), 15-21.
35. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTNING XALQARO BOZORDA MUVAFFAQIYATLI FAOLIYAT YURITISH USULLARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 2(1), 8-14.
36. Raxmonqulova, N. O. (2025). KORXONALARDA YUZAGA KELADIGAN INQIROZ HOLATLARI VA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 2(1), 1-7.
37. Shadiyev, A. X. (2025). A MODERN APPROACH TO THE METHODOLOGY OF TEACHING ECONOMIC DISCIPLINES. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(01), 134-139.
38. Azimov, B. F., Shadiyev, A. X., & Qudratova, G. M. (2025). TANNARX VA UNING IQTISODIY TAHLILDAGI ROLI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 86-93.
39. Bazarova, M. (2025). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT MOLİYASI TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *Modern Science and Research*, 4(1), 29-36.
40. Bazarova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION. *Modern Science and Research*, 2(12), 506-512.
41. Supievnova, B. M. (2023). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 381-386.
42. Akbarovna, N. N. (2025). MENEJER FAOLIYATINING FUNKSIONAL VAZIFALARI VA UNING MADANIYATINING AHAMIYATI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 354-362.
43. Akbarovna, N. N. (2025). MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT TECHNOLOGIES. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(1), 242-249.

44. Abdivayitovna, S. U., & Azimov, B. F. (2025). IMPROVING THE EFFICIENCY OF USING MATERIAL AND TECHNICAL RESOURCES IN ENTERPRISES. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(01), 223-228.
45. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). TEXNOLOGIK JARAYONNING TANNARXINI HISOBLASH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 17-23.
46. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASH, XARAJATLARNI TAHLIL QILISH YONDASHUVLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 47-53.
47. Азимов, Б. Ф., & Гулямов, О. Х. (2017). ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ФОРМЫ ПОДДЕРЖКИ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ. *Ученый XXI века*, (2-2).
48. Jumayeva, Z. Q. (2025). ISSUES OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF COMPETITION ASSESSMENT IN THE BANKING SERVICES MARKET OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT*, 3(1), 41-49.
49. To'rayevich, I. A. (2025). Attracting Investments into the National Economy and their Management: Current Status. *Miasto Przyszłości*, 56, 315-322.
50. AT, I. (2024). MINTAQALAR VA MA'MURIY HUDUDLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLOVCHI IQTISODIY TIZIM SIFATIDA. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 249-255.
51. Sadilloyevna, D. M. (2025). Prospects for Investments in Modernization of the Economy in the Agricultural Sector. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary*